

## VIRUSLI GEPATITLAR VA TUG‘RUQDAN KEYINGI ERTA QON KETISHLARNI KAMA Y TIRISHNING YANGI TEXNOLOGIYALARI

*Rajabova Oygul Islomovna*

*Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro, O‘zbekiston*

*oygul.islomovna.1997@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada virusli gepatitlar va tug‘ruqdan keyingi erta qon ketishlarni kamaytirishning yangi texnologiyalari masalalari yoritilgan. Tug‘ruqdan keyin rutin pabal preparatini qo‘llash maqsadga muvofiqiligini ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Gepatit, tug‘ruq, erta qon ketish, virus, homiladorlik, parenteral, infeksiya, yuqumli, sirroz.

**Kirish.** Virusli gepatit butun dunyo bo‘ylab eng muhim sog‘liqni saqlash sohasining muammolaridan biridir. Ma‘lum bo‘lgan barcha nozologik shakllardan eng dolzarblari gepatit B va C. Bu ularning keng tarqalganligi, inson salomatligi va mehnat qobiliyatiga salbiy ta‘siri, shuningdek surunkali gepatit, jigar sirrozi, gepatotsellyulyar karsinoma kabi noxush oqibatlarining ko‘proq rivojlanishi bilan bog‘liq. Gepatit B keng tarqalgan yuqumli kasallik sifatida tasniflanadi. Taxminan 2 milliard odamlar gepatit B virusi (GB) bilan kasallangan va har yili 2 millionga yaqin bemor GB infeksiyasi bilan bog‘liq patologiyadan vafot etadi. Dunyoda gepatit C virusi (GC) bilan kasallanganlar soni (JSST ma‘lumotlariga ko‘ra) 250 million kishidan oshadi. Ularning aksariyati yashirin tashuvchilardir. Surunkali infeksiyaga o‘tish o‘tkir gepatit C bilan og‘rigan bemorlarning 65-85% da rivojlanadi, virus organizmda o‘nlab yillar davomida ko‘payadi. Keyingi 20 yil davomida O‘GS tashxisi qo‘yilgan shaxslar orasida har beshinchida surunkali gepatit va jigar tsirrozi, har yigirmatasida jigar saratoni rivojlandi. Gepatit B va C homilador ayollarda eng ko‘p uchraydigan infeksiyalardan biridir, shuning uchun ilmiy tibbiyot va amaliy sog‘liqni saqlash virusli jarayonning homiladorlik, tug‘ish va tug‘ruqdan keyingi davrga ta‘siri muammosiga duch kelmoqda. Virusli gepatitlarning homiladorlikni kechishi va natijalariga ta‘siri. Bugungi kunda homilador ayollarda virusli gepatitning klinik va laboratoriya diagnostikasida yagona taktika ishlab chiqilmagan. Parenteral virusli gepatit bilan kasallangan ayollarda homiladorlik davridagi asoratlar soni kasal bo‘lmagan ayollarga qaraganda deyarli ikki baravar, tug‘ruqdagi asoratlar esa 1,5 baravar ko‘paygan. GS ning salbiy ta‘siri nafaqat onaning sog‘lig‘iga, balki rivojlanayotgan homilaga sog‘ligiga ham negativ ta‘sir ko‘rsatadi. GB bilan og‘rigan homilador ayollarda sog‘lom homilador ayollarga qaraganda ko‘proq homilaning ahvolini yomonlashishi va perinatal o‘lim yuqori foizlarda kuzatiladi. Virusli gepatit bilan homiladorlik kechishi ko‘pincha, anemiya (58,2%), homila-platsentar yetishmovchilik (47,3%),

homilani o'z - o'zidan tushish xavfi (41,8%), muddatidan oldin tug'ilish (18,2%) kabi asoratlarni rivojlanishi bilan murakkablashadi. Tug'ruqda, tug'ruq kuchlari anomaliyalari 29,1% gacha va tug'ruqdan keyingi erta chilla davrda qon ketishi 10,9% gacha uchraydi. Gepatitlarni o'rganishdagi katta yutuqlarga qaramay, ushbu kasallikning epidemiologiyasi, klinikasi va perinatologiyasining ba'zi muhim masalalari haligacha o'rganish kerak bo'lgan muammolardandir. Gepatitning epidemiologik keng tarqalishi, reproduktiv yoshdagi aholining faol jalb etilishi, ular orasida surunkali infeksiyaga chalingan odamlarning to'planishi, akusherlik va pediatriyada virusli gepatit muammosining dolzarbligini belgilaydi. Shu munosabat bilan homilador ayollarda kasallik klinikasini o'z vaqtida aniqlash, tashxis qo'yish, epidemiologiyasi, kasallikning og'irligini baholash, ratsional davolash va akusherlik taktikasini tanlash muhimdir. Bu o'z navbatida oldindan asoratlarni oldini olishga, ona va homila hayoti uchun xavfni kamaytirishga xizmat qiladi.

**Materiallar va tekshirish usullari.** Buxoro viloyat perinatal markazi infeksiyon bo'limida 2021 yil gepatit bilan kasallanib davolangan va tug'ruqqa kelgan homiladorlar  $n=30$ , 1-asosiy guruh (1-AG). Gepatit bilan kasallanmagan homiladorlar va tug'ruqqa kelganlar 2 - nazorat guruhi (2-NG)  $n=40$ . Jami tadqiqot uchun  $n=70$  nafar homiladorlar tanlab oldik.

**Tadqiqot natijalari.** 2020 yilda jami tug'ruqlar 8258 nafar, shundan patologik tug'ruqlar 7097 (86%), 2021 yilda 9149 nafar, ularning 7955 nafarida (87%) patologik tug'ruqlar kuzatilgan. Barcha homiladorlarda ekstragenital kasalliklar mavjud. Ushbu kasalliklar orasida jigar kasalliklari (gepatit V va S) 2020 yil 452 nafarida (5,5%) va 2021 yilda 348 nafarida (3,8%) ni tashkil qilgan. Tug'ruqdan keyingi umumiy erta qon ketishlar 2020 yil 31 nafarida (0,4%), kech qon ketishlar 2 nafarida (0,02%) va 2021 yil 44 nafarida (0,5%) hamda kech qon ketishlar 1 nafarida (0,01%) uchradi. Jigar kasalliklari bilan tuqqanlar orasida tug'ruqdan keyingi erta qon ketishlar 2020 yil 29 nafarida (6,4%) va 2021 yil 31 nafarida (8,9%) kuzatilgan. 1-AG da tug'ruqda, 2 nafarida (6,7%) muddatidan oldingi tug'ruq va qolgan 28 nafarida (93,3%) muddatidagi tug'ruqlar bo'lib o'tdi. Tug'ruqlar asosan 25 nafarida (83,3%) tabiiy tug'ruq yo'llari orqali bo'lib o'tdi 5 nafarida (16,7%) akusherlik ko'rsatmalari (homilaning noaniq holati, bachadondagi chandiq, bosh-chanoq disproporsiyasi) bo'yicha kesar kesish operatsiyasi o'tkazildi. Tug'ruqning asoratlanishi qog'onoq suvlarini vaqtdan oldin barvaqt ketishi 3 nafarida (10%), muddatidan oldingi tug'ruq 2 nafarida (6,7%), tug'ruqdan keyingi erta chilla davrida qon ketish 1 nafarida (3,3%), chilla davrida bachadon subinvalyutsiyasi 1 nafarida (3,3%) uchradi. Tug'ruqdan keyingi erta qon ketishda yangi texnologiyalar joriy qilindi. Homila tug'ilishi bilan platsenta ajralishini kutmay yoki kesar kesish operatsiyasida bola olinishi bilan pabal 100 mkg/ml 1 ml tomir ichiga bir minut davomida yuborildi. Natijada tug'ruqdan keyingi erta qon ketishlar yangi texnologiyalar asosida 2021 yil 8,9% dan 3,3% ga

kamaydi. 2-NG da tugʻruqlar barchasida muddatida boʻlib oʻtdi. Tugʻruqlar asosan 36 nafarida (90%) tabbiy tugʻruq yoʻllari orqali boʻlib oʻtdi. 4 nafarida (10%) akusherlik koʻrsatmalari (bachadondagi chandiq, bosh-chanoq disproporsiyasi) boʻyicha kesar kesish operatsiyasi oʻtkazildi. Tugʻruqning asoratlanishi qogʻonoq suvlarini vaqtdan oldin barvaqt ketishi 5 nafarida (12,5%) uchradi. Chilla davrida bachadon subinvalyutsiyasi 1 nafarida (2,5%) kuzatildi. Ushbu 1-nafar subinvalyutsiya kuzatilgan tuqqan ayolda tugʻruqdan keyingi kech qon ketish kuzatildi (2,5%). Natija tugʻruqdan keyin rutin pabal preparatini qoʻllash maqsadga muvofiqligini koʻrsatdi.

**Xulosa.** Jigar kasalliklari (gepatit V va S) 2020 yil 452 nafar (5,5%) va 2021 yilda 348 nafar (3,8%) ni tashkil qildi. Jigar kasalliklari bilan tuqqanlar orasida tugʻruqdan keyingi erta qon ketishlar 2020 yil 39 nafarida (8,6%) va 2021 yil 31 nafarida (8,9%) kuzatildi. 1-AG da tugʻruqdan keyingi erta qon ketishda yangi texnologiyalar joriy qilindi. Homila tugʻilishi bilan platsenta ajralishini kutmay yoki kesar kesish operatsiyasida bola olinishi bilan pabal 100 mkg/ml 1 ml tomir ichiga bir minut davomida yuborildi. Natijada tugʻruqdan keyingi erta qon ketishlar yangi texnologiyalar asosida 2021 yil 8,9% dan 3,3% ga kamaydi. 2-NG da 1-nafar subinvalyutsiya kuzatilgan tuqqan ayolda tugʻruqdan keyingi kech qon ketish kuzatildi (2,5%). Natija tugʻruqdan keyin rutin pabal preparatini qoʻllash maqsadga muvofiqligini koʻrsatdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Toxirovna, E. G. (2024). GIPERPROLAKTINEMIYA KLINIK BELGILARI VA BERPUSHTLIKKA SABAB BOʻLUVCHI OMILLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 168-175.
2. Toxirovna, E. G. (2024). QANDLI DIABET 2-TUR VA OʻLIMNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI SABABLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 86-93.
3. Эргашева, Г. Т. (2024). СОСУЩЕСТВОВАНИЕ ДИАБЕТА 2 ТИПА И СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ПАЦИЕНТОВ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 219-226.
4. Toxirovna, E. G. (2024). QANDLI DIABET 2 TUR VA YURAK QON TOMIR KASALLIKLARINING BEMOLARDA BIRGALIKDA KESHISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 202-209.
5. Эргашева, Г. Т. (2024). СНИЖЕНИЕ РИСКА ОСЛОЖНЕНИЙ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА И СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 210-218.

6. Tuyg'unovna, S. S. (2023). USEFUL PROPERTIES OF THE MEDICINAL PRODUCT AND USE IN MEDICINE. *Gospodarka i Innowacje.*, 40, 179-181.
7. Tuyg'unovna, S. S. (2023). CHEMICAL COMPOSITION OF MEDICINAL PLANTS AND CLASSIFICATION. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 3(11), 33-35.
8. Shukurova, S. (2023). DORIVOR ACHCHIQ BODOM URUG'INING SHIFOBAXSHLIGI, DORI TAYYORLASH USULLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(10 Part 3), 116-120.
9. Tuyg'unovna, S. S. (2023). DORIVOR NA'MATAKNING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 11-13.
10. Shukurova, S. (2023). DORIVOR O'SIMLIKLARNING KIMYOVIY TARKIBI VA TASNIFI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11), 5-10.
11. Shukurova, S. (2023). KIYIKO'T VA YALPIZDAN FOYDALANISH USULLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12), 171-177.
12. Shukurova, S. (2024). TARKIBIDA GLIKOZIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 3(1), 217-222.
13. Tuygunovna, S. S. (2023). Ways to Use Mint and Peppermint. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(12), 20-23.
14. Tuygunovna, S. S. (2023). Medicinal Plants Containing Glycosides. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(12), 24-27.
15. Tuyg'unovna, S. S. (2024). DORIVOR O'SIMLIKLAR XOMASHYOSINI ISHLATISHGA TAYYORLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 123-132.
16. Tuyg'unovna, S. S. (2024). TARKIBIDA LIPIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 133-140.
17. Tuyg'unovna, S. S. (2024). TARKIBIDA VITAMINLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 141-147.
18. Qilichovna, A. M. (2024). CLINIC FOR PATIENTS WITH DENTURES COMPARATIVE DIAGNOSIS AND PATHOGENESIS. *TADQIQOTLAR*, 30(3), 127-135.
19. Ahmedova, M. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF NUTRITIONAL DISPARITIES AMONG PEDIATRIC POPULATIONS: A STUDY OF

- CHILDREN WITH DENTAL CAVITIES VERSUS THOSE IN OPTIMAL HEALTH. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(12), 68-72.
20. Ahmedova, M. (2023). DIFFERENCES IN NUTRITION OF CHILDREN WITH DENTAL CARIES AND HEALTHY CHILDREN. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(12), 42-46.
21. Axmedova, M. (2023). TISH KARIESINING KENG TARQALISHIGA SABAB VO'LUVCHI OMILLAR. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12), 200-205.
22. Ахмедова, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЭТАПАХ ДИАГНОСТИКИ И ПЛАНИРОВАНИЯ ОРТОПЕДИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЭНДОССАЛЬНЫХ ИМПЛАНТАТОВ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 2), 167-173.
23. Axmedova, M. (2023). USE OF COMPUTER TECHNOLOGY AT THE STAGES OF DIAGNOSIS AND PLANNING ORTHOPEDIC TREATMENT BASED ON ENDOSSEAL IMPLANTS. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(11), 54-58.
24. Ахмедова, М. (2020). НАРУШЕНИЯ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ФУНКЦИИ ПРИ РАЗВИТИИ АФТОЗНОГО СТОМАТИТА. *Достижения науки и образования*, (18 (72)), 65-69.
25. Axmedova, M. (2023). THE IMPACT OF SOCIOCULTURAL FACTORS ON THE PERVASIVENESS OF DENTAL CARIES AS A COMPLEX HEALTH CONDITION IN CONTEMPORARY SOCIETY. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(9), 24-28.
26. Narzulaeva, U. R., & Samieva, G. U. (2021). Nasirova ShSh. Hemoreological Disorders in The Early Stages Of Hypertension In Hot Climates. *Journal of Biomedicine and Practice*, 6(1), 221-225.
27. Ахмедова, М. К. (2024). ОБЩИЕ ПРИЧИНЫ КАРИЕСА ЗУБОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 77-85.
28. Dilmurodovna, T. D. (2023). MORPHOLOGICAL ASPECTS OF THE THYROID GLAND IN VARIOUS FORMS OF ITS PATHOLOGY. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149)*, 1(8), 428-431.
29. Dilmurodovna, T. D. (2023). КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЕ ВОСПАЛИТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЕ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ I И II ТИПА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 173-177.

30. Togaydullaeva, D. D. (2022). Erkaklarda yurak ishemik kasalligining kechishida metabolik sindrom komponentlarining ta'siri. *Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya*, 1(4), 29-34.
31. Togaydullaeva, D. D. (2022). ARTERIAL GIPERTONIYA BOR BEMORLARDA KOMORBIDLIK UCHRASHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 32-35.
32. Dilmurodovna, T. D. (2023). Morphological Signs of the Inflammatory Process in the Pancreas in Type I and II Diabetes Mellitus. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(11), 24-27.
33. Khafiza, J., & Dildora, T. (2023). Frequency of Comorbid Pathology among Non-Organized Population. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(4), 260-266.
34. Dilmurodovna, T. D. (2023). Clinical and Diagnostic Features of the Formation of Arterial Hypertension in Young People. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 41-46.
35. Dilmurodovna, T. D. (2024). DIABETES MELLITUS IN CENTRAL ASIA: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 204-213.
36. Тогайдуллаева, Д. Д. (2024). ОБЩИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЕ САХАРНОГО ДИАБЕТА В СРЕДНЕЙ АЗИИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 193-204
37. Tog'aydullaeva, D. D. (2024). GIPERTENZIYA BOR BEMORLARDA MODDALAR ALMASINUVINING BUZULISHI BILAN KELISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 130-137.
38. Dilmurodovna, T. D. (2024). FACTORS CAUSING ESSENTIAL HYPERTENSION AND COURSE OF THE DISEASE. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 138-145.
39. Abdurashitovich, Z. F. (2024). ASTRAGAL O'SIMLIGINING TIBBIYOTDAGI MUHIM AHAMIYATLARI VA SOG'LOM TURMUSH TARZIGA TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 111-119.
40. Abdurashitovich, Z. F. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL ASPECTS OF THE DEEP VEINS OF THE HUMAN BRAIN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(6), 203-206.
41. Abdurashitovich, Z. F. (2024). THE RELATIONSHIP OF STRESS FACTORS AND THYMUS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(6), 188-196.
42. Abdurashitovich, Z. F. (2024). MIOKARD INFARKTI UCHUN XAVF OMILLARINING AHAMIYATINI ANIQLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 83-89.

43. Rakhmatova, D. B., & Zikrillaev, F. A. (2022). DETERMINE THE VALUE OF RISK FACTORS FOR MYOCARDIAL INFARCTION. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA*, 1(4), 23-28.
44. Olimjonovna, K. O. (2024). MORPHOLOGICAL CRITERIA OF THE THYMUS IN CONGENITAL HEART DISEASE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(6), 197-202.
45. Olimjonovna, K. O. (2024). MORPHOLOGICAL CRITERIA OF THE THYMUS IN CONGENITAL HEART DISEASE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(6), 197-202.
46. Komiljonova, O. (2024). THE USE OF GINGER FOR MEDICINAL DISEASES BASED ON TRADITIONAL MEDICINE. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 3(1), 203-211.
47. Olimjonovna, K. O. (2024). HYPOTHYROIDISM AND REPRODUCTIVE DYSFUNCTION IN WOMEN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 75-82.
48. Саидова, Л. Б., & Комилжонова, О. О. Патологическое течение гипотиреоза в климактерическом период в йододефицитной зоне Узбекистана. In *International Conference Science and Education/Uluslararası konferans bilim ve eg'itim//2021-15may-49b*.
49. Toxirovna, E. G. (1788). QANDLI DIABET 2-TUR VA SEMIZLIKNING O'ZARO BOG'LIQLIK SABABLARINI O'RGANISH. *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 10 (3), 168–173.
50. Yomgirovna, R. G. (2023). FORMATION OF COTTON CROP ELEMENTS. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 3(12), 113-115.
51. Rahimova, G. (2024). G'O'ZA HOSIL ELEMENTLARINING SHAKLLANISHI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 3(1), 212-216.
52. Yomgirovna, R. G. (2024). EFFECT OF SEED ENCAPSULATION ON COTTON YIELD. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 116-122.
53. Yomgirovna, R. G. (2024). CHIGITNI BENTONID BILAN KAPSULA QILIB EKISHNING G'O'ZA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 109-115.
54. Yomgirovna, R. G. (2024). G'O'ZA O'SIMLIGIDA HOSIL ELEMENTLARNING RIVOSHLANISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 102-108.
55. Salokhiddinova, X. Y. (2023). Anemia of Chronic Diseases. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 364-372.

56. Salokhiddinova, X. Y. (2023). MALLORY WEISS SYNDROME IN DIFFUSE LIVER LESIONS. *Journal of Science in Medicine and Life*, 1(4), 11-15.
57. Salohiddinova, X. Y. (2023). SURUNKALI KASALLIKLARDA UCHRAYDIGAN ANEMIYALAR MORFO-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(3), 180-188.
58. Халимова, Ю. С. (2024). КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВИТАМИНА D В ФОРМИРОВАНИЕ ПРОТИВОИНФЕКЦИОННОГО ИММУНИТА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(3), 86-94.
59. Saloxiddinova, X. Y. (2024). CLINICAL FEATURES OF VITAMIN D EFFECTS ON BONE METABOLISM. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 90-99.
60. Saloxiddinova, X. Y. (2024). CLINICAL AND MORPHOLOGICAL ASPECTS OF AUTOIMMUNE THYROIDITIS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 100-108.
61. Saloxiddinova, X. Y. (2024). MORPHOFUNCTIONAL FEATURES BLOOD MORPHOLOGY IN AGE-RELATED CHANGES. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 146-158.
62. Saloxiddinova, X. Y. (2024). CLINICAL MORPHOLOGICAL CRITERIA OF LEUKOCYTES. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 159-167.